

# **Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovini o‘tkazish uchun geografiya fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o‘quv me’yoriy hujjatlarga muvofiq qo‘srimcha, o‘zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

## **1. Test topshiriqlarining qo‘llanishi**

Spetsifikatsiya Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni geografiya fanidan oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o‘tkazish uchun o‘qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo‘ljallangan.

## **2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar**

- Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va oliy ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;
- Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim uchun geografiya fanidan takomillashtirilgan o‘quv dasturi, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘ridsida” 2022-yil 2-avgustdagи VM-425-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

## **3. Geografiya fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi**

Geografiya fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darjasini bilan birga mantiqiy fikrashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta’limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo‘naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishiladi.

#### 4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

<b>Kodi</b>	<b>Fan mazmuni tarkibi</b>
1.1	<p style="text-align: center;"><b><i>Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha. Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi</i></b></p> <p>Geografiya nimani o‘rganadi? Geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi. “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursida nimalar o‘rganiladi? O‘rta Osiyoning geografik tekshirilish tarixi. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaga kirish. Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha. Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi.</p>
2.1	<p style="text-align: center;"><b><i>Geografik xaritalar</i></b></p> <p>Azimut va masofani o‘lchash. Joy balandligi. Masshtab. Geografik xaritalar va ularning turlari. Geografik koordinatalar. Atlaslar, globuslar. Xarita andazalari, shartli belgilari. Xaritalardan foydalanish. Topografik xaritalar, ulardan foydalanish. Iqtisodiy-ijtimoiy xaritalar. Vaqt o‘lchovi, soat mintaqalari, taqvimlar.</p>
3.1	<p style="text-align: center;"><b><i>Geografik qobiq</i></b></p> <p>Quyosh, Oy va yulduzlar. Yerning shakli va o‘lchamlari. Yerning o‘z o‘qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi. Yerning qobiqli tuzilganligi. Geografik qobiq va tabiat komplekslari. Geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari va umumiy qonuniyatlari. Materiklar va okeanlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Yerning ichki tuzilishi. Litosfera. Tog‘ jinslari. Tuproqlar haqida tushuncha. Yer po‘stining harakatlari. Yer yuzasi relyefining asosiy shakllari. Gidrosferaning tarkibi. Dunyo okeani. Daryolar. Ko‘llar va muzliklar. Yerosti suvlari. Atmosferaning tuzilishi. Havo harorati va bosimi. Shamol. Havo namligi va yog‘inlar. Ob-havo va iqlim. Yerning iqlim mintaqalari. Tabiat zonalari. Geotizimlar va ularning pog‘onasimonligi. Tabiiy geografik jarayonlar.</p>
3.2	<p style="text-align: center;"><b><i>Okeanlar tabiatи</i></b></p> <p>Dunyo okeani va uning qismlari. Dunyo okeani tubining geologik tuzilishi va relyefi. Okean suvining xususiyatlari. Dunyo okeanining atmosfera va quruqlikka ta’siri. Atlantika, Hind, Tinch va Shimoliy Muz okeanlarining asosiy xususiyatlari, geografik o‘rni, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, okean tubi relyefi, suvining harorati va sho‘rligi, oqimlari, organik dunyosi, iqlim mintaqalari.</p>
3.4	<p style="text-align: center;"><b><i>Materiklar tabiatи</i></b></p> <p>Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Antarktida, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Yevrosiyo materiklarining geografik o‘rni, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, iqlim mintaqalari va tabiat zonalari, tabiiy geografik o‘lkalari.</p>

3.5	<p><b>O‘rta Osiyo o‘lkasining umumiy tabiiy geografik tavsifi</b></p> <p>O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi haqida tushuncha. O‘rta Osiyoning geologik tuzilishi, hududining rivojlanish tarixi, foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o‘simliklari, hayvonot dunyosi, tabiat zonalari. O‘rta Osiyoning kichik o‘lkalari va tabiiy rayonlari.</p>
3.6	<p><b>O‘zbekiston tabiatining va tabiat komplekslarining geografik tavsifi</b></p> <p>Yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o‘simliklari, hayvonot dunyosi. Tabiat komplekslari tavsifi. Chirchiq-Ohangaron, Farg‘ona, Mirzacho‘l, O‘rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Zarafshon, Qizilqum, Quyi Amudaryo, Ustyurt, Orol tabiiy geografik okruglarining tavsifi (relyefi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o‘simliklari, hayvonot dunyosi).</p>
4.1	<p><b>O‘zbekiston iqtisodiyotining umumiy geografik va regional tavsifi</b></p> <p>O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi. Sanoat – milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i. Sanoat tarmoqlari: yoqilg‘i-energetika majmuasi, kimyo sanoati, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, yog‘ochni qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari sanoati, agrosanoat majmuasi. Sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari. Transport geografiyasi. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari, rekreatsiya va turizm. Tashqi iqtisodiy aloqalar. O‘zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish: Toshkent, Mirzacho‘l, Farg‘ona, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlariga geografik tavsif.</p>
4.2	<p><b>Jahon xo‘jaligining umumiy geografik va regional tavsifi</b></p> <p>Jahon mamlakatlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti. Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari. Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologiyalarning ta’siri. Jahon energetikasi, metallurgiya va kimyo sanoati, mashinasozligi va yengil sanoati geografiyasi, jahon dehqonchiligi, chorvachiligi va baliqchiligi geografiyasi. Jahon transporti geografiyasi. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi. Yevropa mamlakatlarining iqtisodiyoti. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya mamlakatlarining xo‘jaligiga tavsif. Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi. Markaziy Osiyo mamlakatlari: Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston. Osiyo mamlakatlari: Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Hindiston, Fors qo‘ltig‘i davlatlari, Indoneziya, Malayziya, Singapur mamlakatlarining xo‘jaligiga tavsif. Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari xo‘jaligi: JAR, Nigeriya, Misr, Avstraliya Ittifoqi, AQSh, Kanada, Braziliya. Yevropa subregionlari. Lotin Amerikasi. Karib havzasi orol mamlakatlari. Afrika subregionlari. Okeaniya davlatlari. Janubi-g‘arbiy va Janubiy Osiyo davlatlari. Sharqiy</p>

	va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari.
4.3	<p><b><i>Jahon mintaqalari va mamlakatlarining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar bilan ta`minlanganligi</i></b></p> <p>Tabiiy boyliklar va ularning inson uchun ahamiyati. Okean boyliklari, ulardan foydalanish. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari. Dunyoning tabiiy resurslari. Jahon mintaqalari va mamlakatlarining tabiiy sharoiti va resurslari.</p>
5.1	<p><b><i>Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar (geoekologiya)</i></b></p> <p>Yerning hayot qobig‘i – biosfera. Okean boyliklari, ularni muhofaza qilish, okeanlarda insonning xo‘jalik faoliyati. Afrika, Avstraliya, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Yevroсиyo materiklari aholisining tabiatga ta’siri va ularning tabiatini muhofaza qilish. O‘rta Osiyoning ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish. O‘zbekistonning tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish. O‘zbekistonning geoekologik muammolari. Zamonaviy ekologik muammolar. Sanoat va ekologik muammolar. Jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar. Antropogen landshaftlar. Tabiatni muhofaza qilishning geografik asoslari. Geografik baholash. Geografik prognoz. Atrof-muhit monitoringi va geografik-ekologik ekspertiza asoslari.</p>
6.1	<p><b><i>Aholi geografiyasi va demografiya</i></b></p> <p>Yer yuzi aholisi, irqlar. Afrika, Avstraliya, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Yevroсиyo materiklarining aholisi. O‘rta Osiyo aholisi. O‘zbekiston aholisi va uning tarkibi. Aholi punktlari. Dunyo aholisi va zamonaviy demografik vaziyat. Jahon aholisining soni, o‘sishi va joylashuvi, jinsiy, yosh, irqiy, etnik, diniy tarkibi. Jahon mintaqalari va mamlakatlarining aholisi. Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya jarayonining global va regional jihatlari. Xalqaro migratsiya jarayonlari va muammolari.</p>
7.1	<p><b><i>Jahonning geosiyosiy tavsifi</i></b></p> <p>Jahonning siyosiy xaritasi. O‘rta Osiyo siyosiy xaritasi. O‘zbekistonning geografik o‘rni va ma’muriy-hududiy tuzilishi. Mamlakatlarning boshqaruв shakli va davlat tuzilishi. Yevropa, Osiyo, Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mintaqalarining geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritalari. Dunyoning geosiyosiy tizimi va uning shakllanishi. Jahondagi zamonaviy geosiyosiy vaziyat. Davlatlarning integratsion uyushmalari. Insoniyatning global muammolari. O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va munosabatlari.</p>
8.1	<p><b><i>Mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar</i></b></p> <p>Mavzular kesimida amaliyot (kompetentlik) ga yo‘naltirilgan va fanlararo bog‘liqlikka oid (mantiqiy), ya’ni:</p>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- geografik koordinatalar, masshtab va azimutga oid;</li> <li>- havo harorati, havo bosimi, mutlaq va nisbiy namlik, okean suvining xususiyatlariga oid;</li> <li>- mintaqaviy va mahalliy vaqtlar, soat mintaqalarining orasidagi vaqtarning farqiga oid;</li> <li>- aholi tabiiy va migratsion harakati, aholi zichligi va tarkibi, mehnat unumdlorligi, hududlarning urbanizatsiyalashuv darajasiga oid;</li> <li>- iqtisodiy geografik mazmundagi (iqtisodiyot tarmoqlarining salmog‘i, ixtisoslashuv koeffitsiyenti, tashqi savdo aylanmasi va balansi) ga oid masalalarni yechish.</li> </ul> <p>Tabiat komponentlari, iqtisodiyot tarmoqlari va demografiya ko‘rsatgichlari aks ettirilgan jadval, diagramma, grafik va chizmalarni tahlil qila olish, eng samarali yechimini topish, taqqoslay olish.</p> <p>O‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalardan foydalanib yozuvsız xaritalardan joy nomlarini, geografik obyektlarni, iqlim mintaqalarni va tabiat zonalarni aniqlay olish.</p>
--	--

## 5. Geografiya faniga oid kognitiv ko‘nikma darajasi

1.	quyi kognitiv ko‘nikma darajasi	<p>tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik jarayonlar va hodisalarni bilish va tushunish;</p> <p>geografik xarita, atlas va globuslar haqida tasavvurga ega bo‘lish, ularda aks ettirilgan geografik obyektlar va hodisalarni bir-biridan ajratishni bilish va tushunish.</p> <p>tabiiy va iqtisodiy - ijtimoiy geografik jarayonlar va hodisalarning xususiyatlarini bilish va tushunish;</p> <p>mavzularga oid chizma, diagramma, grafik, jadvaldagagi ma’lumotlardan foydalangan holda amaliy topshiriqlarni bajarish usullarini bilish.</p>
2.	yuqori kognitiv ko‘nikma darajasi	<p>tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik jarayonlar va hodisalarning mohiyatini, umumiylarini anglay olish va tahlil qilish;</p> <p>geografik obyektlarni tarkibiy qismlarga ajrata olish, ularning xususiyatlarini tahlil qilish va o‘zaro taqqoslay olish;</p> <p>geografik xarita, atlas va globuslarda aks ettirilgan geografik obyektlar va hodisalar o‘rnini yozuvsız xaritalardan aniqlay olish;</p> <p>mavzular kesimida amaliyot (kompetentlik) ga yo‘naltirilgan va fanlararo bog‘liqlikka doir amaliy topshiriqlar va masalalarni yechish usullarini bilish, tahlil qilish, eng samarali yechimini topish, taqqoslay olish.</p>

## **6. Geografiya fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar**

Geografiya faniga oid test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasini, nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishini hamda ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlari geografiya faniga oid fan dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab ko'rsatilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asosida shakllantirilgan.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar	Kodi
Tabiiy geografiya	<p>Geografiya fani nimani o'rganishini, uning rivojlanish tarixini, tarkibiy qismlarini hamda hozirgi davrda oldida turgan asosiy vazifalarini bilish.</p> <p>Yer yuzidagi tabiiy jarayon va hodisalarni tushunish; tun va kun, yil fasllari almashinishini tushuna olish; ob-havo va uning o'zgarishini, iqlim xususiyatlarini tushunish, tahlil qila olish.</p> <p>Yer yuzi tabiatining xilma-xilligini keltirib chiqaruvchi asosiy geografik omil va qonuniyatlarni bilish, anglash, tahlil qila olish.</p> <p>Yer yuzi tabiatiga fazoviy (tashqi) va sayyoraviy (ichki) omillarning ta'sirini tushunish.</p> <p>Geografik qobiq va uning tarkibiy qismlari — litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferada kechadigan tabiiy hodisa hamda jarayonlarning mohiyatini anglash va tushunsh.</p> <p>Geografik qobiqning asosiy qonuniyatları — bir butunlik, modda va energiya almashinuvi, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini bilish, tushunish, tahlil qila olish.</p> <p>Okeanlarning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif bera olish, ularning hududiy xususiyatlarini bilish va tushunish.</p> <p>Materiklarning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif bera olish, ularning hududiy xususiyatlarini tushunish, tahlil qilish va o'zaro taqqoslay olish.</p> <p>O'rta Osiyoning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif bera olish, ularning hududiy xususiyatlarini bilish va tushunish.</p> <p>O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif bera olish, ularning hududiy xususiyatlarini tushunish, tahlil qilish va o'zaro taqqoslay olish</p>	<p>1.1.1</p> <p>1.1.2</p> <p>1.1.3</p> <p>1.1.4</p> <p>1.1.5</p> <p>1.1.6</p>

		Geografik bilimlar asosida tabiiy jarayon va hodisalarga doir amaliy topshiriqlarni yecha olish.	1.1.7
	Ijtimiy-iqtisodiy geografiya	O‘zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari va viloyatlariga kompleks iqtisodiy geografik tavsif bera olish, hududlarini iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan bilish va tushunish.	2.1.1
	Ijtimiy-iqtisodiy geografiya	Jahon xo‘jaligi, dunyoning yirik mintaqasi va davlatlariga kompleks iqtisodiy geografik tavsif bera olish, hududlarini iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan tushunish, tahlil qila olish va taqqoslay olish. Jahonning yirik mintaqalari va turli davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi geografik omillarni tushunish. Globallashuv ta’sirida jahon xo‘jaligi, dunyoning geosiyosiy tuzilishida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni bilish va tushunish.	2.1.2
	Ijtimiy-iqtisodiy geografiya	Aholi va ishlab chiqarishning joylashuviga ta’sir etuvchi geografik omillarni bilish, tushunish. Aholi dinamikasi va tarkibi, zamonaviy demografik jarayonlar, urbanizatsiya va aholi migratsiyasining mohiyatini tushunish va tahlil qila olish.	2.1.3
	Ijtimiy-iqtisodiy geografiya	Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini bilish va tushunish. Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning zamonaviy geosiyosiy va geoijtisodiy o‘rnini bilish. Insoniyatning global muammolari haqida tushunchaga ega bo‘lish.	2.1.4
	Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi	Geografik bilimlar asosida iqtisodiy-ijtimoiy jarayon va hodisalarga doir amaliy topshiriqlarni yecha olish.	2.1.5
	Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi	Ufq tomonlari, azimut, joy balandligi, masshtab hamda geografik koordinatalarni bilish va ulardan amalda foydalana olish.	3.1.1
	Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi	Geografik xaritalar va ularning turlari, atlaslar, globuslar, xarita andazalari va shartli belgilarini bilish, tushunish.	3.1.2
	Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi	Geografik xaritalar, topografik xaritalar, yozuvsiz xaritalardan amalda foydalana olish.	3.1.3
	Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi	Vaqt o‘lchovi, soat mintaqalari, taqvimlar haqidagi ma’lumotlarni tushunish hamda ulardan amalda foydalana olish, tahlil qilish, eng samarali yechimini topish, taqqoslay olish	3.1.4

Tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya	Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi	Insoniyatning tabiatdan oqilona foydalanishi, ularning tabiatga ta'sirini, global va mintaqaviy ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini bilish va tushunish.	4.1.1
		Tabiiy resurslarning jamiyat hayotidagi tutgan o'rnini bilish va tushunish.	4.1.2
		Materiklar, dunyo mamlakatlari hamda mamlakatimizdagi muhofaza etiladigan hududlarni, ularning turlarini, hududiy joylashuvi va amaliy ahamiyatini bilish va tushunish.	4.1.3
		O'zbekiston, Markaziy Osiyo mamlakatlari, jahon mintaqalaridagi ekologik muammolarning mohiyati va kelib chiqish omillarini bilish va tushunish.	4.1.4

#### **7. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga):**

- 40 ta test topshirig'i uchun 120 daqiqa.

*\*Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi bilan kelishilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-son yig'ilishi qarori bilan ma'qullangan.*